



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINING NUTQINI O‘STIRISHNING AYRIM USULLARI

U. Rashidova

SamDU dotsenti

S. Abdusattorova

*Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti magistranti*

Abstract: *Maqolada ajdodlarimiz yaratgan eng bebaho xazinasi bo‘lgan kitob, uning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishdagi ahamiyati birdek saqlangani xususida fikr yuritilgan. Bugungi kunda ilmga ishtiyoqmand barcha yoshlar, ziyolilar, ma‘rifatparvarlar uchun bu bebaxo xazina qimmatli hisoblanib, uning qadri yuksalmoqda. Kitobxonlik madaniyati nafaqat bugun taraqqiy etishi, balki keyingi avlodlarga ham yetib borib, ulargayam beminnat xizmat qilishi zarur.*

Keywords: *kitob, kitobxonlik, besh tashabbus, nutq madaniyati, komil inson, hadislar.*

Buyuk vatandoshimiz shayxul rais Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo‘lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: «Yosh bola boshlang‘ich ta‘lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg‘ul bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasb-hunar va san‘atga moyilligiga qarab, uni shunga yo‘llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so‘zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o‘rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega» («*Islomiy tarbiya va uning falsafasi*». Muhammad Atiya, 197-bet).

Mutaxassislar tavsiyasiga ko‘ra, bola maktabga borgunicha uni podshoh tuyib muomala qilinadi, ya‘ni risoladagi barcha iltimoslari so‘zsiz bajariladi, sho‘xlik va erkaliklardan qaytarilmaydi. Shundan so‘ng unga asta-sekin tushuntirish, kattalarning o‘zi ibrat bo‘lishi orqali tarbiya beriladi. Tarbiya bir necha tomondan olib boriladi. Bola aqlan rivojlanishi uchun unga turli kitoblar o‘qib beriladi, rivoyat va ibratli hikoyatlar so‘zlanadi yoki aql-zakovatini o‘stiradigan o‘yinlar, mashg‘ulotlarga jalb qilinadi. Ruhiiy tarbiyasini yaxshilash uchun hayot va o‘lim, yaxshilik va yomonlik, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruhiyatiga mos suhbat va tushuntirish olib boriladi. Jismoniy tarbiya berish uchun esa biror foydali mehnatga jalb qilish, suzish, merganlik, chavandozlik kabi mashg‘ulotlarni o‘rgatish mumkin.

Bolalarga yoshligidan boshlab Qur‘oni karim qissalaridan, payg‘ambarlarning hayoti haqida naql qiluvchi turli rivoyatlardan, xalq ertaklari va dostonlaridan, topishmoqlar, maqol va matallardan o‘qib berish, so‘zlash yoki ularning o‘zlariga o‘qitish ham kerak. Bu bilan bolalarning zehni o‘sadi, fikri kengayadi, dunyoqarashi boyiydi, xotirasi kuchayadi. Eng asosiysi, bola eshitganlaridan ibratlanib, yaxshi odamlarga ergashishga intiladi, ularning xulqu odobidan bahramand bo‘ladi.

O‘g‘il-qizlarining zehni o‘shishini, aql-idrokli, fikrlovchi bo‘lib ulg‘ayishini istagan ota-onalar ularga kichikligidan turli ibratli hikoyalarni, ulug‘larimizning hayot yo‘llari va fazilatlarini haqidagi rivoyatlarni, ramziy ma‘nodagi yaxshilikka, chiroyli axloq va odobga chorlovchi ertaklarni so‘zlab berishsa, ular ma‘naviyatini yuksaltirishda katta tarbiyaviy ish qilgan



bo'lishadi. Quyida misrlik olim Abdulloh Abdul Muti'ning «Islomda tarbiya» kitobidan bir ertakni keltirib o'tishni lozim ko'rdik.

Quyvon va toshbaqa. Juda qadim zamonlarda bir-birlariga qo'shni bo'lib quyvon va toshbaqa yashashgan ekan. Bir kuni toshbaqa quyonga bunday debdi: «Meni doim sekin yurishda ayblaysan, sen esa chopag'onsan. Bugun men seni poyga o'ynashga chaqiraman». Quyvon esa mag'rurlanib: «Xo-xo-xo, menday chopqir quyvon arang-arang o'rmalab yuradigan toshbaqa bilan poyga o'ynarkanmi? Bu haqiqatan kulgili gap!» debdi. Biroq quyvon toshbaqani bir sharmanda qilish uchun oldindagi tepalikkacha uning bilan poyga chopishga rozi bo'libdi. Ular musobaqani boshlashibdi. Quyvon o'zining chopqirligini yaxshi bilganidan, musobaqada g'olib bo'lishiga qattiq ishonganidan, taltayib-kerilib poygaga kirishibdi. Shuning uchun yo'l-yo'lakay o'ynoqlab, beda va sabzi uchrasa, ulardan yeb, ancha vaqtini yo'qotibdi. Toshbaqa esa jiddiyligini saqlab, belgilangan marraga yetmagunicha yo'lida sobitqadamlik bilan davom etaveribdi. Quyvon toshbaqaning qaerda kelayotganini ko'rish uchun atrofiga alanglasa, u allaqachon tepalikka yetib borgan ekan. Endi quyvon toshbaqaga yetib olishga kechikkanini anglabdi.

Shunday qilib, toshbaqa o'zining sabr-matonati va tirishqoqligi tufayli poygada yutib chiqibdi. Quyvon bo'lsa, chopag'onligi va epcilligiga ishonib mag'rurlangani, vaqtida harakat qilmagani uchun yutqazib qo'yibdi.

Bunday ibratli ertak, rivoyatlar bolalarning aqlini o'stiradi, yaxshilikka, ezgulikka chaqiradi, yomonliklardan uzoqda bo'lishga undaydi, ular fikri va ongini rivojlantiradi. Bolalar biror yomon qiliq qilishsa, yengil tanbeh, tushuntirish vositasida buning yomonligini bildirish lozim. Bola kichikligida uning tarbiyasini o'z holiga tashlab qo'ygan, ongi, zehni, aqli, odobini shakllantirish bilan shug'ullanishga vaqt topolmagan yoki bunga hafসা qilmagan ota-ona farzandi ulg'aygach, achchiq nadomat hosilini teradi. Farzandlari qalbiga yo'l topa olmayotgan, ular bilan murosalar kelishmayotgan ota-ona avvalo o'zlarini ularning o'rniga qo'yib, shu yoshda men qanday fikrlagan va qanday ish tutgan bo'lur edim deb, shu haqda biroz mulohaza yuritib ko'rishsa, hamma narsa joyiga tushadi. Buning ustiga davr, zamonlar orasidagi farqni ham unutmaslik kerak: zamon hech qachon bir joyda qotib turmaydi. U o'zgarib, taraqqiy etib boradi. Bu haqda hazrat Ali (roziyallohu anhu): «Farzandlaringizni o'zlarining davriga moslab tarbiyalanglar», deganlar. Chunki kechagina ardoqlangan narsa bugun e'tibordan qolishi yoki aksincha, kecha qadri bo'lmagan nimadir bugun eng qimmatli narsaga aylanishi mumkin.

Shu omillar e'tiborga olinmasa, «hozirgi yoshlarga qoyil qolmadim, biz o'z davrimizda bundoq qilardik, bizlar mana bundoq edik» kabi malomat va nadomatlar ko'payaveradi, kattalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyat-to'qnashuvlar avjiga chiqaveradi. Bola ulg'ayish jarayonida hamma narsani asosan atrofidagi kattalardan o'rganadi. Ulardan ibrat olib, ularga taqlid qilib, hayotiy tajriba orttira boradi. Endi o'zingiz qo'pol va badxulq bo'lsangiz-u, bolangizni chiroyli xulqli va odobli qilib tarbiyalayman deb o'ylasangiz, xato qilasiz. Agar o'zingiz cheksangiz yoki ichsangiz-u, farzandingizni bu yomon illatlardan qaytaraman desangiz, umidingiz va harakatlaringiz puchdir. O'zingiz yolg'on gapiruvchi yoki aldoqchi ekansiz, bolangizdan rostgo'ylik va omonatdorlik kutib ovora bo'lmang.

Ma'lumki, o'z vaqtida o'qilgan kitob, tinglangan ertak, afsona, she'r ayrim hollarda inson taqdirini hal etishi, bir umrlik orzu-maqсадlarini belgilab berishi mumkin. Aslida insonlik bolalalikdan boshlanadi. Ayni shu bollaikda inson qalbiga yaxshilik niholini ekuvchi asosiy manba, xazina bu – kitobdir. Faqat kitob orqali bolaning murg'ak qalbiga aqliy kamolot, keng va chuqur ma'lumot, har tomonlama his- tuyg'usini shakllantirishga erishish mumkin.

Tajribada kattalarga nisbatan bolalarga ta'sir o'tkazish ham oson, ayni paytda qiyin ekanligi ko'zga tashlanadi. Osonligi, bolalar o'ta ziyrak va ta'sirchandır. Qiyinligi esa, bolalar ko'p narsani bilmay turib ko'p narsani sezadilar va o'zlarining imkoniyatiga qarab mushohada



qiladilar. Natijada har bir bola fe'l-atvorida o'ziga xosma'lum xususiyatlar paydo bo'la boshlaydi. Mana shu o'rinda, kattalar mehr va sabr – toqat bilan uning shakllanishiga ko'mak bermog'i lozim. Chunki, ular beg'ubor, gunohsiz norasida farishtalardir. Ular bugun bola bo'lgani bilan ertaga qarasang turli kasb egalari yoki aksincha bezori, muttaham insonga aylanib qolishi mumkin. Ayniqsa, salbiy illatlar ko'zga tashlana brogan sari, uni qayta tarbiyalash, ya'ni "davolash" ga to'g'ri keladi. Chunki, bunday bolalarning kechinmalari kuchli bo'lib, uning aql doirasi tevarak-atrofidagi yuz berayotgan hodisalarni to'g'ri tushunishga, ijobiy xulosalarni chiqarishga o'zlik qiladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi turli janrlardan iborat xazinaga boy. Ularning hamrohiga aylangan. Ayniqsa, dovyurak bahodirlar, go'zal maliklarga, o'zi uchar gilamlar, sehrli qalpoqchalar, ajdarhoyu devlar, parilar ajoyib-g'aroyib ertaklarni tinglashni sevadilar. Hatto, ayrim bolalar ertaklar olamiga berilib ketib, undagi ayrim voqealar ta'rifidan hayajonga berilib ketishadi va ertakni to'qigan, yoki so'zlab bergan ertakchini so'roqqa tutishga harakat qiladi. Bu kabi qiziqish bolalarda ularning yoshiga xos bo'lgan olijanob tuyg'ularni uyg'otadi.

Yana bir mulohaza. Ma'lumki, ertaklar turli-tuman mavzularni qamrab olish bilan qiziqarli. Ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklar bolalarning sevimli va qiziqarli turi hisoblanadi. Bu xil ertaklar bolalarni tabiat, hayvonlar haqida tushuncha beradigan janr turidir. Bu xil ertaklarni tinglagan bolalar ertakchining so'zlash ohangiga e'tibor beradi: ya'ni rahmdil, mehribon ohangda aytilgan ertak bolalarda o'z hayvonni himoya qilish, qushlar, ninachi, kapalaklar va hatto gullarni sevishtuyg'usini tarbiyalaydi. Muhimi, bolalarda ijobiy insoniy tuyg'uni tarbiyalashda muhim narsa vaqtni boy bermaslik. Aksincha, salbiy xulq atvorni oldini olishda ham vaqt muhim ahamiyatga egadir. Chunki, bolada kitobga muhabbat uyg'otishda, kitobning ta'sirchanlik xususiyati muhimdir. U o'ziga yoqib qolgan qahramonning ijobiy harakatlaridan quvonadi va jazzi qalbida his qiladi. Chunki, bolalik onlaridagi tuyg'ular kuchli bo'lib, o'qigan kitobidagi, yoki eshitgan ertagidagi ilk taassurotlar keyinchalik butun umrga esda qolishi mumkin.

Shu sababli oltinga teng bolalik yillarining samimiyligini zoya ketkazmaslik g'oyat muhimdir. Bu o'rinda, mo'jaz, bola tilini ravonlashtiradigan bolalar she'riyatini ham muhim janrlardan biridir. Odatda, o'qish va yozishni bilmaydigan bolalarni she'r yodlashga odatlantirish keng yo'lga qo'yilgan. Bolalar she'rni yoddan aytib berganda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga, ohangiga e'tibor berishga harakat qiladi. Agar she'r voqeaband bo'lsa, mazmunini bisotida mavjud bo'lgan so'zlar yordamida hikoya ham qilib berishga intiladi.

Aytaylik, tayyorlov guruhiga birlashtirilgan tarbiyachi, uning ijobiy fazilati bolalarning e'tiborini tortadi. Shirin so'zligi, erkalashlari, maqtashlariga bola o'zicha baho beradi. Aksincha, qattiqqul, qo'pol tarbiyachi ham bolalardan o'z bahosini oladi. Yaxshi tarbiyachi faqat tarbiya beribgina qolmasdan, ularning mitti dunyoqarashini shakllantirishida qiziqarli ertak, she'r, hikoyat va rivoyatlarni tanlashi, ertak qahramonlarining so'zlar, harakatlari orqali, ijobiy qahramonlarga muhabbat, salbiy qahramonlarga nisbatan nafrattuyg'usini shakllantiriladi.

Olimlarning aniqlashicha, bola aqlining shakllanish davri 7 yoshgacha davom etar ekan. Aynan shu davrda u qanday inson bo'lib, yetishishiga zamin bo'ladigan butun axborotning 7 foizini o'zlashtirishlari ham fanda aniqlangan. Keyinchalik, mazkur axborot tizimini mustahkamlash, uni bolaning qon-qoniga singdirib yuborish chorasini ko'rish muhim ta'limiy ahamiyatga egadir. Vaqt o'tgan sayin bolaning o'tkir aqli va axloq-ma'naviy yetuk inson bo'lib yetishishining asosiy shartlari uchun poydevor yaratiladi.

O'rta asr allomalaridan Al-Forobiyning fikricha " ... zakovat –biror narsani juda tez, deyarli vaqt sarflamay yoki juda qisqa muddat ichida osonlik bilan fahmlay olish qobiliyatidir." Darhaqiqat, buyuk zotlarda tafakkur, iste'dod zarralari bolalik davridayoq ma'lum ta'sirlar ostida shakllanib borgan. Bunga sharq allomalarning bolaligi bog'liq misollarni keltirish mumkin. Chunki,



iste'dodli kishilar ko'pchilikni tashkil etadi. Faqat undagi qobiliyatni bolaligidan aniqlab, uni tarbiyalab boricha alohida e'tibor berib bormoqlik muhim bir jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruza // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2017 yil, 4 avgust, №32.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi. 2017 yil 12 yanvar. <http://uza.uz/oz/documents/kitobma-sulotlarini-chop-etish-va-tar-atish-tizimini-rivozh-12-01-2017>
3. Irisov A., Hakim Ibn Sino hayoti va ijodi. -T. O'zbekiston, 1992, 10-11 betlar.
4. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. 640 b. b.